ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 34
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOLANTIRISHDA BOSHQARUV STRATEGIYALARI: GLOBAL VA MILLIY TASHABBUSLAR

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li
https://orcid.org/009-0001-7045-4062

Annotatsiya. *Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat siyosati, strategiyalari, tashabbuslari shuningdek resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlik va innovatsion yondashuvlarning muhimligi ko'rib chiqiladi. Boshqaruv strategiyalarining ahamiyati, jumladan, uzoq muddatli rejalashtirish, xavflarni boshqarish va iqtisodiy o'sish bilan ekologik muvofiqlikni ta'minlash masalalari ta'kidlanadi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida barqaror amaliyotlarni qo'llash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, strategik boshqaruv, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiy siyosat, yashil texnologiyalar, davlat siyosati, yashil o'sish, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar*

СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ В РЕВОЛЮЦИИ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ: ГЛОБАЛЬНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИНИЦИАТИВЫ

Аннотация. *В статье рассматривается роль государственной политики, стратегий и инициатив в развитии зеленой экономики, а также важность ресурсоэффективности, экологической устойчивости и инновационных подходов. Подчеркивается важность стратегий управления, включая долгосрочное планирование, управление рисками и обеспечение экологической совместимости с экономическим ростом. Приводятся научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию мер, принимаемых для внедрения устойчивых практик в различных секторах экономики.*

Ключевые слова: *Зеленая экономика, стратегическое управление, экологическая устойчивость, зеленая экономическая политика, зеленые технологии, государственная политика, зеленый рост, устойчивое развитие, инновации*

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 34
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

MANAGEMENT STRATEGIES IN REVOLUTIONIZING THE GREEN ECONOMY: GLOBAL AND NATIONAL INITIATIVES

Abstact.*The article examines the role of government policies, strategies, and initiatives in developing a green economy, as well as the importance of resource efficiency, environmental sustainability, and innovative approaches. The importance of management strategies, including long-term planning, risk management, and ensuring environmental compatibility with economic growth, is emphasized. Scientifically based proposals and recommendations are provided to improve the measures being taken to implement sustainable practices in various sectors of the economy.*

Keywords*: Green economy, strategic management, environmental sustainability, green economic policy, green technologies, public policy, green growth, sustainable development, innovation*

Kirish

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurati dolzarb masala sifatida qaraladi, chunki mamlakat tabiiy resurslarga boy bo‘lib, ularni samarali boshqarish va ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish dolzarb masaladir, bu jarayon iqtisodiy o‘sish bilan birga ekologik barqarorlikni saqlab qolishni ta’minlaydi. Shu munosabat bilan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yilni O‘zbekistonda “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilib, bu yo‘nalishdagi strategiyalarni kuchaytirishga e’tibor qaratishni ko‘zda tutgan[1]. Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekistonga resurs samaradorligini oshirish, energiya iste’molini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi, shuningdek, havo va suv ifloslanishini cheklash va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini pasaytirish orqali ekologik xavf xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish juda murakkab jarayon bo‘lib, unda davlat boshqaruvi muhim o‘rin tutadi, chunki to‘g‘ri boshqaruvsiz iqtisodiy islohotlar samarasiz bo‘lib, kutilgan natijalarga erisholmaslik mumkin. Shu sababli, yashil iqtisodiyot strategiyalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash jarayonida davlat siyosati doirasida yashil iqtisodiyotni targ‘ib qiluvchi qonunlar, imtiyozlar va moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish, milliy va hududiy rivojlanish rejalariga yashil

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida so’zlagan nutqi

iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish hamda Green Economic Efficiency (GEE) kabi ko‘rsatkichlar orqali monitoring va baholash kabi strategiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish zarur hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Jamiyatda asta-sekinlik bilan tabiiy resurslarni rekreatsiya va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun asrab qolish zarurati to‘g‘risidagi g‘oyalar, kelajak avlod oldida ekologik mas’uliyatga asoslangan ilmiy konsepsiyalar shakllanishiga olib keldi [2]A.V. Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev

Yashil iqtisodiyot barcha uchun farovonlik olib keladi va kambag‘allik darajasini pasaytiradi, barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darajasiga erishish, oziq ovqat xavfsizligini ta’minlash va sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanitariya, suv bilan ta’minlash, energiya va boshqa asosiy xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi[3] M.T.Asqarova, J.J.Jamolov

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma’ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Nizomlar, yo‘riqnomalar, xorijda va Respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog‘i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan amaliy materiallar tashkil etadi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda davlatning strategik boshqaruvi muhim rol o‘ynab, samarali siyosat, innovatsiyalarni joriy etish va doimiy monitoring orqali iqtisodiyotni transformatsiya qilish imkonini taqdim etadi. Mamlakat o‘zining tabiiy resurslarini tejash, ekologik standartlarni joriy qilish va yashil investitsiyalarni jalb qilish orqali kelajakdagi barqaror rivojlanishini ta’minlashi mumkin.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari asosan davlat siyosati, texnologiyalar va innovatsiyalar, hamda korxonalarda ekologik standartlarni joriy qilish kabi yo‘nalishlarga tayanadi. Davlat siyosati va qonunchilik asoslari doirasida, hukumat ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida

[2] A.V. Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev (2021) Yashil iqtisodiyot: Darslik 2-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan./ i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: “ZEBO PRINT”, 2021. -264b

[3] M.T.Asqarova, J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev (2022) Yashil iqtisodiyot. (Darslik). — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 312 b.

yashil iqtisodiyotni targ‘ib qiluvchi qonunlar, imtiyozlar va moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishga e’tibor qaratmoqda. Bunday siyosatlar va huquqiy normalar orqali mamlakatda ekologiyani saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash kabi jarayonlarni samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

1-jadvalda mamlakatlar, fuqarolar hamda korxonalar darajasida yashil iqtisodiyotga o‘tishning potensial afzalliklari va salbiy tomonlari yoritib berilgan.

Dunyo amaliyotida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning afzalliklari va kamchiliklari

1-jadval

Afzalliklari:	
1	- Atrof-muhit bilan mos keluvchi iqtisodiy mahsulotlar ishlab chiqiladi;
2	- barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalar rivojlanadi, bu esa global va mahalliy ehtiyojlarni kamroq xarajat evaziga qondirish imkonini beradi;
3	- barqaror boshqaruv tamoyillariga moslashuv kuchayadi va bu korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi;
4	- resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, tabiiy resurslar va energiyaga bo‘lgan talab kamayadi.
5	- barqaror shahar muhitida yashash sifati yaxshilanadi;
6	-energiya sarfi va ifloslanish darajasi pasayadi.
Kamchiliklari:	
1	- Foydali qazilmalar va energiya resurslari narxi oshishi mumkin;
2	- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va agrar sektordagi ishlab chiqarish xarajatlari ortadi, bu esa narxlarning oshishiga olib keladi;
3	- yangi texnologiyalarni joriy etish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi;
4	- yirik ishlab chiqarish korxonalarida ishsizlik ko‘payishi ehtimoli mavjud;
5	- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi global miqyosda kamayishi mumkin;
6	- barqaror yashash va mehnat muhiti yaratish uchun shaharlarda katta hajmdagi sarmoya talab etiladi.

Manba: Barbiroli, G. Economic Consequences of The Transition Process Toward Green And Sustainable Economies: Costs And Advantages, International Journal of Sustainable Development and World Ecology, 18(1), 17–27., 2011.

Ushbu jadvalda mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishi bilan bog‘liq bir qator afzalliklar, jumladan, atrof-muhitga mos mahsulotlarning shakllanishi, energiya va

boshqa resurslarga bo‘lgan talabning kamayishi, shuningdek, shahar muhitida yashash sharoitlarining yaxshilanishi ta’kidlangan.

Ushbu mavzudagi yashil boshqaruv modellarining asosiy jihatlarini quyidagi jadvalda ko‘rib chiqish mumkin:

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik boshqaruv modellari va mexanizmlari[4]

2-jadval

Model	Tavsif	Ahamiyati
Environmental Management Systems (EMS)	Korxonalarda toksik chiqindilarni kamaytirish, resurslarni oqilona boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tizim	Ekologik samaradorlikni oshirish va ekologik qiziqishga ega guruhlarni jalb qilish
ISO standartlari	Yengillashtirilgan, majburiy va ixtiyoriy ekologik boshqaruv usullarini o‘z ichiga olgan hamda so‘nggi 20 yil davomida rivojlangan model	Standartlashtirilgan tartibda ekologik normalarni joriy etish
Konseptual modellar	Klassen va Whybark kabi modellar, proaktiv va reaktiv yondashuvlarni baholash orqali ekologik masalalarni hal qilishni qo‘llab quvvatlaydi	Operatsion boshqaruvda ekologik masalalarni kompleks tahlil qilish imkoniyatini beradi.
Strategik rejalashtirish va PPPlar	Yashil investitsiyalarni jalb qilishda raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va davlat-xususiy hamkorlik (PPP) orqali resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlaydi	Investitsiya va innovatsiyalar vositasida yangi bozor imkoniyatlarini ochish, energiya samaradorligini oshirish va texnologiya taraqqiyoti

[4] “O‘zbekistonni yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi: imkoniyatlari va muammolar “ nomli konferensiyasi maqolalar to‘plami 71-bet. “ўзбекистонда яшил иқтисодиётни шакллантиришда стратегик бошқарувнинг аҳамияти” maqolasi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, har bir model o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati bilan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda dolzarb ahamiyatga ega. Bizningcha, ushbu modellarning kompleks amalga oshirilishi, ya’ni ekologik boshqaruv modellari, strategik rejalashtirish va davlat-xususiy sektor hamkorligi, mamlakatda energiya samaradorligi, resurslarni oqilona boshqarish va ekologiyani muhofaza qilishda ilg‘or natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda, jumladan:

O‘zbekistonda yashil iqtisodiy siyosat bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari

3-jadval

t/r	Dasturlar	Maqsadi
1	“Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili Davlat dasturi	Aholining salomatligini yaxshilash, tabiiy resurslarni tejash, biologik xilma-xillikni saqlash, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish.
2	“Yashil makon” dasturi	Ushbu dastur doirasida daraxt ekish va bog‘lar yaratish orqali mamlakatimizning ekologik holatini yaxshilash maqsad qilingan
3	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish	Mamlakatimizning energiya mustaqilligini ta’minlash va ekologik toza energiyadan foydalanishni kengaytirish
4	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi	Ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha uzoq muddatli rejalarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Manba: Normativ hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, balki iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash uchun ham muhimdir.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish global yalpi ichki mahsulotni 2050 yilgacha 2,5%ga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu borada bir nechta yo‘nalishlar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish zarur.

Yashil iqtisodiy boshqaruv bo‘yicha taklif va loyihalar

4-jadval

t/r	Taklif va loyihalar	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan loyihalar

1	Davlat siyosatini takomillashtirish yo‘llari	Qonunchilikni takomillashtirish, Yashil energiyani rag‘batlantirish, Innovatsiya va tadqiqotlarga ko‘mak berish
2	Korxonalarda ekologik boshqaruvni takomillashtirish	Iqtisodiy rag‘batlar yaratish, Korxonalar uchun “yashil sertifikatlashtirish” tizimini joriy etish, Yashil texnologiyalarni joriy qilish
3	Yashil investitsiyalarni kengaytirish strategiyalari	Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, Yashil obligatsiyalar va fondlarni joriy qilish, Moliyaviy sheriklik va hamkorlikni kuchaytirish

Ushbu dasturlar va strategiyalar O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda asosiy ustuvor yo‘nalishlar qatorida tabiiy resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va sanoat hamda qishloq xo‘jaligida yashil texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, huquqiy bazani takomillashtirish va jamoatchilikni faol jalb qilish muhim vazifalardan sanaladi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishidagi asosiy muammolarga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin :

- *texnologik infratuzilmani yangilash talablari*: O‘zbekistonda ko‘pincha an’anaviy energiya manbalari (gaz, uglerod) ishlatilmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zamonaviy tozalik va energiya samaradorligi texnologiyalariga investitsiyalarni talab qiladi.

- *energiya samaradorligini oshirish*: Energiya samaradorligini oshirish uchun infratuzilma va tadbirkorlik sohasidagi ishlash tizimi yoki davlat siyosati yangilanishi kerak. O‘zbekistonda energiya tejashga yo‘naltirilgan to‘g‘ri mexanizmlar va qonuniy kafolatlar yetarli emas.

- *qarz va moliyaviy manbalar muammolari*: Yashil iqtisodiyotga o‘tish ko‘pinicha katta sarmoyalarni talab qiladi. Loyihalarni moliyalashtirish va davlatning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi masalalari kutilgan darajada emas.

- *ma’lumotning yoki bilimning yetishmovchiligi:* Yashil iqtisodiyotning konsepsiyasi va uning ahamiyati haqida umumiy aholining kam ma’lumotga ega bo‘lishi yoki bu sohada bilimning yetishmasligi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda va ishlab chiqarishda o‘zgarishlarni joriy etishda muammolar tug‘diradi.

- *sanoat va qishloq xo'jaligidagi ta'lim va malaka yetishmasligi*: Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida mutaxassislar va yangi ishlab chiqarish texnologiyalariga yo'naltirilgan dasturlar zarur.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlarini SWOT tahlili asosida ko'rib chiqaylik. SWOT tahlili — bu tashkilotlar yoki mamlakatlar uchun strategiyalarni belgilashda foydalaniladigan usul bo'lib, u kuchli tomonlar (Strengths), kuchsiz tomonlar (Weaknesses), imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlarni (Threats) baholashga asoslangan**.**

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari bo'yicha SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Kuchsiz tomonlar (Weaknesses)
Geografik afzalliklar	Moliyaviy manbalarning cheklanganligi
Moliyaviy qo'llab-quvvatlov	Texnologik muammolar
Qonunchilik va strategiyalar	Kadrlar salohiyatining yetarli emasligi
O'zgartirishga qaratilgan siyosat	

Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Yashil texnologiyalar va innovatsiyalar	Iqlim o'zgarishi
Xalqaro hamkorlik	Sanoat infratuzilmasining eskirganligi
Tabiiy resurslardan samarali foydalanish	Yashil texnologiyalarning arzon emasligi
Ekologik turizm	Raqobat va mahalliy infratuzilmani rivojlantirish

Yashil iqtisodiyotga o'tishda davlat siyosatining ahamiyati katta. Davlatning qarorlar qabul qilish jarayonida quyidagi yashil iqtisodiyot tamoyillarini inobatga olishi zarur hisobanadi, jumladan:

Qonunlar va normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida davlatning asosiy roli qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Yashil iqtisodiyotga oid me'yoriy hujjatlar, ekologik standartlar va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rag'batlantirish bo'yicha qonunlar ishlab chiqilishi kerak.

Yashil moliya va investitsiyalarni rag‘batlantirish: Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun davlat yashil moliya tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratishi zarur. Bu, qayta tiklanadigan energiya loyihalarini, atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan texnologiyalarni va boshqa ekologik dasturlarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Davlat yashil obligatsiyalar chiqarish, subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali yashil loyihalarga investitsiyalarni jalb etishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish: Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyatli tajribalari ko‘plab mamlakatlarda mavjud. Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik, texnologiya transferi va tajriba almashish jarayonlarini kuchaytirish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish tezlashadi. Shu bilan birga, xalqaro iqlim kelishuvlari va kelajakdagi iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishdagi hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va bilimlarni oshirish: Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim tizimi katta rol o‘ynaydi. Davlat ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar va atrof-muhitni himoya qilish masalalarida ta'limni kuchaytirishi, kadrlarni tayyorlash va ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Xulosa

Yashil iqtisodiy boshqaruvni rivojlantirishda davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. Ekologik soliq tizimlari, subsidiya dasturlari va yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish kabi choralar yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki berishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish barqaror iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiy model uzoq muddatli barqarorlik va rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ekologik va iqtisodiy manfaatlarni uyg‘unlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy omillari bo‘lib qoladi.

Yuqorida keltirilgan muammolar va xalqaro tajribalar tahliliga asoslanib, quyidagi takliflarni berishimiz mumkin.

“Toza hudud” mahalla dasturi. Har yili eng toza, tajribali va yashil hududga aylangan mahalla aniqlanadi. G‘olib mahallaga quyosh energiyasida ishlaydigan ko‘cha chiroqlari, aqlli chiqindi qutilari va yashil hududlarni kengaytirish imkoniyati beriladi.

“Aqlli bog‘” tashabbusi. Yangi qurilayotgan turar-joy majmualarida avtomatik sug‘orish tizimi, chiqindilarni ajratish punktlari, quyosh energiyasi bilan ishlaydigan

chiroqlar va veloyo‘laklar joriy qilinadi. Bu model “yashil shahar” konsepsiyasiga mos kelib, ekologik infratuzilmani zamonaviy tarzda shakllantirishga zamin yaratadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatdir. Davlat siyosatidagi ijobiy o‘zgarishlar yoshlarning faolligi va texnologik yechimlar bu yo‘nalishda mustahkam tayanch bo‘la oladi. Taklif va amaliy g‘oyalar esa ushbu jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. Eng muhimi, bu islohatlar aholining kundalik hayotiga yaqin va foydali bo‘lishi kerak – shundagina yashil rivojlanish haqiqiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g’risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ 436-son qarori https://lex.uz/ru/docs/-6303230

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 04.10.2019- yildagi PQ-4477- sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4539502

4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya qo’mitasi. (2022). Atrof muhitni muhofaza qilishning yangi usullari. Toshkent: Ekologiya nashriyoti. – B.78

5. Global Energy Observatory. (2023). Quyosh energiyasini stansiyalarining texnik xususiyatlari. – B. 34.

6. O‘zbekiston Qishloq Xo‘jaligi vazirligi. (2023). Bioenergetika loyihalarining iqtisodiy samardorligi. Toshkent. – B. 67.

7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti – www.mineconomy.uz

8. Яшил иқтисодиёт: Дарслик./А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. –Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.

9. BMT Barqaror rivojlanish bo‘yicha dastur. (2022). Global barqarorlik hisoboti. – B. 12.

10. World Bank. (2023).Green Growth and sustainable Development. – P. 45.

11. BMT Barqaror rivojlanish bo‘yicha dastur. (2022). Global barqarorlik hisoboti. – B. 12.

12. World Bank. (2023).Green Growth and sustainable Development. – P. 45.